

## New Day in Medicine Новый День в Медицине NDM



# TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal







AVICENNA-MED.UZ





6 (80) 2025

#### Сопредседатели редакционной коллегии:

#### Ш. Ж. ТЕШАЕВ, А. Ш. РЕВИШВИЛИ

Рел. коллегия:

м.и. абдуллаев

А.А. АБДУМАЖИДОВ

Р.Б. АБДУЛЛАЕВ

Л.М. АБДУЛЛАЕВА

А.Ш. АБДУМАЖИДОВ

М.А. АБДУЛЛАЕВА

Х.А. АБДУМАДЖИДОВ

Б.З. АБДУСАМАТОВ

М.М. АКБАРОВ

Х.А. АКИЛОВ

М.М. АЛИЕВ

С.Ж. АМИНОВ

III.3. AMOHOB

Ш.М. АХМЕДОВ

Ю.М. АХМЕДОВ

С.М. АХМЕЛОВА

Т.А. АСКАРОВ

М.А. АРТИКОВА

Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)

Е А БЕРЛИЕВ

Б.Т. БУЗРУКОВ

Р.К. ДАДАБАЕВА

М.Н. ДАМИНОВА

К.А. ЛЕХКОНОВ

Э.С. ДЖУМАБАЕВ

А.А. ДЖАЛИЛОВ

Н Н ЗОЛОТОВА

А.Ш. ИНОЯТОВ С. ИНДАМИНОВ

А.И. ИСКАНДАРОВ

А.С. ИЛЬЯСОВ

Э.Э. КОБИЛОВ

A.M. MAHHAHOB

Д.М. МУСАЕВА

T.C. MVCAEB

М.Р. МИРЗОЕВА

Ф.Г. НАЗИРОВ

Н.А. НУРАЛИЕВА

Ф.С. ОРИПОВ

Б.Т. РАХИМОВ Х.А. РАСУЛОВ

Ш.И. РУЗИЕВ

С.А. РУЗИБОЕВ

С.А.ГАФФОРОВ

С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)

Ж.Б. САТТАРОВ

Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)

И.А. САТИВАЛДИЕВА

Ш.Т. САЛИМОВ

Д.И. ТУКСАНОВА

М.М. ТАДЖИЕВ

А.Ж. ХАМРАЕВ

Б.Б. ХАСАНОВ

Д.А. ХАСАНОВА

Б.3. ХАМДАМОВ

А.М. ШАМСИЕВ А.К. ШАДМАНОВ

Н.Ж. ЭРМАТОВ

Б.Б. ЕРГАШЕВ

Н.Ш. ЕРГАШЕВ

И.Р. ЮЛДАШЕВ

Д.Х. ЮЛДАШЕВА

А.С. ЮСУПОВ

Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ

М.Ш. ХАКИМОВ Д.О. ИВАНОВ (Россия)

К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)

DONG IINCHENG (Китай)

КУЗАКОВ В.Е. (Россия)

Я. МЕЙЕРНИК (Словакия) В.А. МИТИШ (Россия)

В И. ПРИМАКОВ (Беларусь)

О.В. ПЕШИКОВ (Россия)

А.А. ПОТАПОВ (Россия)

А.А. ТЕПЛОВ (Россия)

Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)

А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)

С.Н ГУСЕЙНОВА (Азарбайджан)

Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV(Azerbaijan) Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

### ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН новый день в медицине **NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, матнавий-матрифий журнал Научно-реферативный, духовно-просветительский журнал

#### УЧРЕЛИТЕЛИ:

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»

Национальный медицинский исследовательский центр хирургии имени А.В. Вишневского является генеральным научно-практическим консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных изданий, рецензируемых Высшей Аттестационной Комиссией Республики Узбекистан (Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

#### РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)

Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)

А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)

Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)

Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)

У.К. КАЮМОВ (Тошкент)

Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)

А.А. НОСИРОВ (Ташкент)

А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)

Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент) Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

6 (80)

ndmuz@mail.ru июнь Тел: +99890 8061882

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

Received: 20.05.2025, Accepted: 10.06.2025, Published: 15.06.2025

#### UDK 618.1; 618.14-007.44; 618.2-089

#### REPRODUKTIV YOSHDAGI AYOLLARDA III-IV DARAJALI JINSIY A'ZOLAR PROLAPSINI JARROHLIK YOʻLI BILAN DAVOLASH

Shavkatov Xasan Shavkatovich https://orcid.org/0009-0008-8893-5201

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Oʻzbekiston, Samarqand, st. Amir Temur 18, Tel: +99818 66 2330841 E-mail: sammi@sammi.uz

#### ✓ Rezyume

Maqolada reproduktiv yoshdagi ayollarda qoʻllaniladigan jarrohlik amaliyotlari turlari, shuningdek, organ saqlab qoluvchi jarrohlik usullari oʻrganildi. Tadqiqot davomida jinsiy a'zolarning III-IV darajali prolapsi bilan ogʻrigan 37 nafar bemor tekshiruvdan oʻtkazildi, ularning yoshi 22 dan 36 yoshgacha boʻlgan. Bemorlarimizda barcha tekshiruv usullari qoʻllanildi, ya'ni umumiy klinik-laborator va ginekologik tekshiruvlar o'tkazildi. Jinsiy a'zolar prolapsining sabablari oʻrganilib, tahlil qilindi, bemorlarning kasallik tarixi (anamnezi) batafsil oʻrganildi

Kalit so'zlar: jinsiy a'zolar prolapsi, reproduktiv yosh, transvaginal gisterektomiya, tsistocele, rektocele

#### ХИРУРГИЧЕСКОЕ ЛЕЧЕНИЕ ПРОЛАПСА ПОЛОВЫХ ОРГАНОВ ІІІ–ІУ СТЕПЕНИ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА

Шавкатов Хасан Шавкатович

Самаркандский государственный медицинский университет Узбекистан, г.Самарканд, ул. Амира Темура 18, Тел: +99818 66 2330841 E-mail: sammi@sammi.uz

#### √ Резюме

В статье изучены виды хирургических вмешательств, применяемых у женщин репродуктивного возраста, а также органосохраняющие методы операций. В ходе исследования было обследовано 37 пациенток с пролапсом половых органов III–IV степени в возрасте от 22 до 36 лет. Всем пациенткам были проведены всесторонние клиниколабораторные и гинекологические обследования. Изучены и проанализированы причины пролапса половых органов, а также тщательно рассмотрен анамнез пациенток

Ключевые слова: пролапс половых органов, репродуктивный возраст, трансвагинальная гистерэктомия, цистоцеле, ректоцеле

#### SURGICAL TREATMENT OF STAGE III-IV GENITAL PROLAPSE IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE

Khasan Shavkatovich Shavkatov

Samarkand State Medical University Uzbekistan, Samarkand, st. Amir Temur 18, Tel: +99818 66 2330841 E-mail: sammi@sammi.uz

#### ✓ Resume

This article examines the types of surgical interventions used in women of reproductive age, including organ-preserving surgical techniques. The study involved 37 patients aged between 22 and 36 years with stage III-IV genital prolapse. All patients underwent comprehensive clinical, laboratory, and gynecological examinations. The causes of genital prolapse were studied and analyzed, and detailed patient histories were reviewed

Keywords: genital prolapse, reproductive age, transvaginal hysterectomy, cystocele, rectocele



#### Dolzarbligi

J insiy a'zolar prolapsining dolzarbligi shundaki, bu holat keng tarqalgan boʻlib, klinik belgilarining erta namoyon boʻlishi bilan xarakterlanadi va koʻp hollarda operatsiyadan keyin kasallikning qaytalanishi bilan bogʻliq. Bundan tashqari, bu kasallikning oʻz-oʻzidan tuzalish tendensiyasi mavjud emas. Ayni paytda statistik koʻrsatkichlarning pasayishiga qaramay, bu holat akusherlikda dolzarb muammolardan biri boʻlib qolmoqda (Uolters, tibbiyot doktori, 2013 y.). Bugungi kunda ayollarda, ayniqsa homiladorlikda makrosomiya kuzatiladigan holatlarda va ayollarning hayot sharoitlari, xususan spirtli ichimliklarga berilish holatlari, jinsiy a'zolarning erta tushishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, reproduktiv yoshdagi ayollarda tos a'zolari prolapsi klinik jihatdan namoyon boʻlmoqda. Soʻnggi yillarda tos mushaklari yetishmovchiligi bilan birga ogʻir shakldagi jinsiy a'zolar prolapsi holatlari yosh ayollar orasida ham koʻpaymoqda (Chen G.D., 2017). Chanoq tubi mushaklarining zaifligi, jinsiy a'zolarning tushishi va natijada ularning toʻliq yoʻqolishi jiddiy tibbiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida baholanmoqda. Bu holat ginekologlar va boshqa soha mutaxassislari diqqat markazida turibdi. Koʻp hollarda kasallik reproduktiv yoshda boshlanadi va oʻsuvchan (progressiv) kechadi.

Ilgari jinsiy a'zolarning tushishi yoki toʻliq prolapsi faqat katta yoshdagi ayollar kasalligi sifatida qaralgan boʻlsa, hozirgi kunda bu holat ancha "yosharib", bunday tashxis reproduktiv yoshdagi ayollar orasida ham koʻproq qoʻyilmoqda (M.K. Cho, J.H. Moon, K.H. Kim – 2017). Ba'zi mualliflarning (Lucot, J.P., 2018) ma'lumotlariga koʻra, 30 yoshgacha boʻlgan ayollarda jinsiy a'zolar prolapsining uchrash chastotasi 10,1% ni, 30–45 yoshdagi ayollarda – 40,2% ni, 50 yoshdan katta ayollarda esa – 50% gacha boʻlganini koʻrsatmoqda (Bezhenar V.F., 2013).

**Tadqiqot maqsadi:** Reproduktiv yoshdagi ayollarda jinsiy a'zolar III–IV darajali prolapsini davolash natijalarini tahlil qilish hamda qoʻllanilgan jarrohlik usullarining qisqa va uzoq muddatli samaradorligini baholash.

#### Material va usullar

Bizning tadqiqotimiz ostida 22–36 yoshdagi jinsiy a'zolarning aniq ifodalangan, jinsiy a'zolar prolapsining III-IV darajasi bilan murojat qilgan 37 nafar bemor ayollar oʻrganildi. Bundan tashqari oʻtkazilgan jarroxlik amaliyotini uzoq va yaqin natijalarni baxolash maqsadida 20 nafar ananaviy usulda jarroxlik amaliyotini oʻtkazgan ayollar taqqoslash maqsadida kasallik tarixi oʻrganildi. Bemorlarga barcha tekshiruv usullari haqida tushuntirildi, ularning kasallik tarixi (anamnezi) yigʻildi, umumiy klinik va laborator tadqiqotlar, jinsiy a'zolarning prolaps darajasi, kichik chanoq a'zolarining ultratovush tekshiruvi, qoʻshimcha asoratlar, kolposkopiya, vaginal surtmalarning bakteriologik va bakteriostopik tekshiruvlari oʻtkazildi.

Bundan tashqari, bajarilgan dastlabki jarrohlik amaliyotlarining turlari va hajmi, operatsiyadan keyingi davrning kechishi va yuzaga kelgan asoratlar batafsil oʻrganildi va tahlil qilindi.

#### Natija va tahlillar

Olingan natijalar shuni koʻrsatdiki, jinsiy a'zolar prolapsining residiv shakli bilan murojaat qilgan bemorlarning (37 ta shikoyat) holati POP-Q klassifikatsiyasi asosida oʻrganildi. POP-Q klassifikatsiyasi boʻyicha III—IV darajalarda kasallikning asoratlari va klinik belgilari aniq ifodalanadi. Bundan tashqari, ayrim bemorlarda qoʻshimcha asoratlar — kolpit, servitsit, endoservitsit kabi yalligʻlanish holatlari kuzatildi. Biz nafaqat qin devori prolapsida qoʻllaniladigan jarrohlik usullarini, balki kasallikning qaytalanishiga olib kelgan amaliyotlarni ham tahlil qildik.




Bemor T., k/t 214 Retsidivlangan prolaps. Bachadon III-darajali tushishi.



Bemor S. Kasallik tarixi:№586 Retsidivlangan prolaps. Bachadon IV-darajali tushishi


Tadqiqot doirasida 36 nafar genital prolaps bilan ogʻrigan bemorlar (31–43 yosh) tekshirildi. Ularning anamnezi, klinik va laborator ma'lumotlari yigʻildi, yangi POP-Q tizimi asosida prolaps darajasi belgilandi, kichik chanoq a'zolari ultratovush tekshiruvi oʻtkazildi. Prolaps sabablari va ularning hayot sifati bilan bogʻliqligi chuqur tahlil qilindi.



Bemor K. Kasallik tarixi:№186
Bachadon IV-darajali tushishi bilan 2012 yili
jarroxlik amaliyoti o`tkazgan.
Tashxis: Retsidivlangan prolaps. Bachadon
bo`yni elongatsiyasi. Bachadon bo`yni trofik
yarasi.

Natijalarga koʻra bemorlarda POP-Q boʻyicha III–IV darajadagi prolaps aniqlangan. Ular orasida 16 nafar bemor (45,9%) qinda noqulaylik, dispareuniya va jinsiy funksiyalar buzilishi haqida shikoyat qilgan, qolgan 18 nafar bemorda (54,1%) esa ogʻir asoratlar — siydik va gaz tutolmaslik, tsistocele va rektocele kuzatilgan.

Akusherlik anamnezini oʻrganishda 21 nafar bemordatugʻruq bilan bogʻliq kech asoratlar boʻlgan. 9 bemorda homila makrosomiyasi sababli qin va tos a'zolari shikastlangan, 6 bemorga epiziotomiya qilingan, 3 bemorda esa tos a'zolari bilan kelgan homiladorlikda bachadon boʻyni yorilgan.



#### Xulosa

Zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, jinsiy a'zolar prolapsi reproduktiv yoshdagi ayollar orasida dolzarb ginekologik muammo boʻlib qolmoqda. Ma'lumotlarga koʻra, prolaps residivi bilan murojaat qilgan bemorlarning 35% dan ortigʻi qayta jarrohlik amaliyotiga muhtoj boʻladi. Afzalliklaridan biri — bemorlar operatsiyadan keyingi kunning oʻzida harakatlana boshlaydi. 3–4 kun ichida o'tirishga yurishga ruxsat beriladi, 7-kun natijalar va Davolash samaradorligi 3 bosqichda – 3 oy, 6 oy va 1 yildan soʻng baholandi. Operatsiyagacha ayollarning 100% hayot sifatini "yomon" deb baholagan bo'lsa, 1 yildan so'ng bu ko'rsatkich 40% ni tashkil etdi, qolgan 60% esa hayot sifatini "yaxshi" deb baholagan. Prolaps bilan bogʻliq asoratlar 89% ga kamaygan. Eng muhim jihati shundaki, operatsiyadan keyingi 3 yil ichida prolapsning qaytalanishi kuzatilmadi.



#### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1. Allayarova, V.F., Nikitin, N.I., Ishmuratov, N.A. (2020). "Microecosystem status of the vagina in norm and pelvic floor muscle insufficiency." Medical Bulletin of Bashkortostan, 15(6), 123-127.
- 2. Bychenko, V.V. (2021). "Pelvic organ prolapse in women: A hidden threat (literature review)." Bulletin of Syktyvkar University, Series 2: Biology, Geology, Chemistry, Ecology, 2(18), 73-80.
- 3. Lazukina, M.V., Michelson, A.A., Bashmakova, N.V., et al. (2020). "Preoperative preparation effects on vaginal architecture in severe genital prolapse in postmenopausal women." Gynecology, 22(4), 33-38.
- 4. Petrosyan, E.I., Puchkova, N.V., Mgelashvili, M.V., et al. (2021). "Possibilities of organ-preserving correction of pelvic floor muscle insufficiency combined with cervical elongation in reproductive-aged women." Russian Journal of Obstetrics and Gynecology, 21(3), 79-84.
- 5. Shavkatov Xasan Shavkatovich. (2024). The use of surgical practice in women of reproductive age with severe degrees of genital prolapse. Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing, 2(2), 1–4. Retrieved from https://webofjournals.com/index.php/5/article/view/730
- 6. Negmadjanov Baxodur Boltayevich, Shavkatov Xasan Shavkatovich, & Zoirova Nilufar Asliddin qizi. (2023). Jinsiy a'zolar prolapsi retsidivi va asoratini xirurgik davolashni takomillashtirish. Образование наука и инновационные идеи в мире, 31(2), 106–109. Retrieved from <a href="https://newjournal.org/01/article/view/9052">https://newjournal.org/01/article/view/9052</a>
- 7. Шавкатов, Х., Б. Негмаджанов, Ш. Фаттаева, и Г. Арзиева. «Повторный пролапс половых органов у женщин». Журнал вестник врача, т. 1, вып. 1, февраль 2016 г., сс. 60-64, https://inlibrary.uz/index.php/doctors herald/article/view/343

Qabul qilingan sana 20.05.2025